NAVOIY VILOYATI G‘OZG‘ON SHAHAR HOKIMINING
Q A R O R I

G‘ozg‘on shahar, Amir Temur k 1.

2024 - yil 22 - yanvar 6-5-210-Q/24 G‘ozg‘on shahri xokimligi

Shahar hududida yuridik shaxslarga tegishli transport vositalarini majburiy texnik ko‘rigini tashkil etish va uni o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomning ijrosini ta’minlash maqsadida, shahar ichki ishlar boshqarmasining 2023-yil 15-dekabrdagi 24/3290-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. G‘ozg‘on shahar hududidagi yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha shahar komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish uchun foydalaniladigan yengil avtomobillar, avtobuslar va o‘tiriladigan joylari soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularga tirkamalar **bir yilda ikki marta**;

b) ishlab chiqilganiga besh yildan ko‘p bo‘lmagan (ishlab chiqarilgan yili shu jumlaga kiradi) transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) **olti yilda uch marta**;

c) ishlab chiqilgan yilini hisobga olgan holda, ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan transport vositalari, shuningdek, ishlab chiqilgan vaqti aniqlangan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) **bir yilda bir marta**;

d) tirkamalar shatakchi transport vositasi uchun belgilangan muddatlarda ko‘rikka taqdim etiladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi, Ichki ishlar vazirligining Ichki va soqchilik qo‘shinlari, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy bo‘linmalari transport vositlari ko‘rsatib o‘tilgan idoralar tomonidan, belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish belgilanganligi inobatga olinsin.

5. Shahardagi yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi 2024-yil 1-yanvardan 31-dekabrgacha etib belgilansin.

6. Mazkur qarorning 3-bandi “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarini texnik ko‘rigi:

2024-yilda birinchi marta 1-martdan 30-iyungacha;

2024-yilda ikkinchi marta 1-sentabrdan 31-oktabrdagacha o‘tkazilsin.

Bu holatda mazkur transport vositalari ikkinchi marta ham texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun yig‘im undiriladi.

7. Majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun quyidagi tartiblarda yig‘im undirilsin:

Transport vositalari texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun (mototransport, tirkamalar va yarim tirkamalardan tashqari) belgilangan miqdorda yig‘im undiriladi;

Mototransport, tirkamalar, yarim tirkamalar texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun belgilangan miqdorlarda yig‘im undiriladi;

Birinchi (oldingi) texnik ko‘rikdan “nosoz” deb topilgan transport vositalari takroriy texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun belgilangan miqdorda yig‘im undiriladi.

8. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha shahar komissiyasi (Muxitdinov)ga:

transport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish normalari va qoidalariga rioya etilishi ustidan samarali nazoratni tashkil etish;

transport vositalarining texnik holati va uskunalari yo‘l harakati xavfsizligi standartlari, qoidalari normalariga muvofiqligini baholash vazifalari yuklatilsin.

9. Shahar IIB yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (Qudratov)ga:

transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishni, texnika vositalarini sug‘urtalanganligi to‘g‘risidagi tegishli hujjatlar taqdim etilgandan so‘ng, amalga oshirilishiga alohida e’tibor qaratish;

mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, texnik ko‘rikdan o‘tgan har bir transport vositasini texnik ko‘rikdan o‘tganligi to‘g‘risida guvohnoma bilan ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

10. Shahardagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik shaxslarga transport vositalarini texnik pasporti bilan birgalikda texnik ko‘rikdan o‘tkazilishini, ularning texnik jihatdan sozligini va o‘z vaqtida reja jadval asosida ko‘rikdan o‘tkazilishini ta’minlash topshirilsin.

11. Shahar ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (Muxitdinov) mazkur qaror ijrosini natijasi bo‘yicha 2024-yilning 10-oktabriga qadar shahar hokimligiga yozma axborot taqdim etsin.

12. “Navqiron G‘ozg‘on” gazetasi tahririyati (Esanov) mazkur qaror “Navqiron G‘ozg‘on” gazetasida rasman e’lon qilinishini ta’minlansin.

13. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklatilsin.

14. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Shahar hokimi **A.Bazarov**

G‘ozg‘on shahar hokimining
2024-yil 22-yanvardagi
6-5-210-Q/24-son qaroriga
1-ilova

G‘ozg‘on shahridagi jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish

JADVALI

№	Tashkilot, korxona, xo’jalik va muaassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Transportlar soni
1.	"GAZGAN STONE" MChJ	09.10.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	3
2.	"MASH AL BARAKA" XK	09.10.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	1
3.	"AMIR XONDAMIR KELAJAGI" XK	09.10.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	1
4.	"GAZGAN-NUR" XK	09.10.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	2
5.	"G'OZG'ON NASLCHILIK" MCHJ	04.09.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	2
6.	"HAYIT - RAYIM - NAJOT" XK	04.09.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	3
7.	"MARMAR OBOD" MCHJ	05.09.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	10
8.	"MARMAR STANDART" MCHJ	06.09.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	8
9.	"NAVOIY VILOYATI G'OZG'ON SHAHAR KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK BO'LIMI" DM	06.09.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	1

10.	"ODILBOY" MCHJ	07.09.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	1
11.	"USTO-ZIKRIYO" XK	07.09.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	2
12.	"ZAFAR" XK	07.09.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	1
13.	"NAMOZJON-GULRUX" XK	07.09.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	1
14.	"RAVSHAN DILSHOD" XK	07.09.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	1
15.	G`OZG`ON SHAHAR MOLIYA BO`LIMI	07.09.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	1
16.	G`OZG`ON SHAHAR OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	08.09.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	7
17.	G‘OZG‘ON SHAHAR XALQ TA’LIMI BO‘LIMI	08.09.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	1
18.	"NAVOI PROCESS STONE COMPANY" MCHJ XK	08.09.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	1
19.	SANITARIYA EPIDEMALOGIK BO‘LIMI	10.09.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	2
20.	"NAZOKAT - SEVINCH - SOXIBJAMOL" XK	10.09.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	2
21.	YASHNARBEK-CHAROSXON XK	10.09.2024	9:00-17:00	Tashkilot hududida	2